

Nabiyeva Yulduz Shuhrat qizi

Shahrisabz davlat pedagogika institute

Filologiya fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada badiiy asarlarda detalning o'rni va mohiyati yoritiladi. Badiiy detal asar mazmunini chuqurroq ochish, qahramon xarakterini ko'rsatish hamda voqea-hodisalarni yanada aniq va ta'sirchan tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada detalning turlari, ularning badiiy matndagi vazifalari hamda o'quvchiga estetik ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy detallarning asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochishda tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi.

ANNOTATION

This article discusses the role and essence of detail in works of art. Artistic detail plays an important role in revealing the content of the work more deeply, showing the character of the hero, and describing events more clearly and effectively. The article analyzes the types of detail, their functions in the literary text, and their aesthetic impact on the reader. It also discusses the role of artistic details in revealing the ideological and artistic content of the work.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается роль и сущность деталей в произведениях искусства. Художественные детали играют важную роль в более глубоком раскрытии содержания произведения, демонстрации характера героя и более ясном и эффективном описании событий. В статье анализируются типы деталей, их функции в литературном тексте и их эстетическое воздействие на читателя. Также обсуждается роль художественных деталей в раскрытии идеологического и художественного содержания произведения.

Kalit so'zlar: Detall, xarakteristika, peysaj, obraz, sintez, makon, zamon, portret, psixik detal, holat detali, nutqiy detal, sharoit detali, peysaj detali.

Keywords: Detail, characterization, landscape, image, synthesis, space, time, portrait, psychic detail, situational detail, speech detail, situational detail, landscape detail.

Ключевые слова: Деталь, характеристика, пейзаж, изображение, синтез, пространство, время, портрет, психическая деталь, ситуативная деталь, деталь речи, ситуативная деталь, деталь пейзажа.

Kirish. Mavzuning dolzarbligi. Badiiy asarlardagi detal obralarning dolzarbligi shundaki, bu obraz biz uchun badiiy asarning mazmun mohiyatini, qahramonlarning ichki kechinmanlari va badiiy asarning yozilishining ayni maqsadini ochib berishga yordam beradi. Adabiyotshunoslikda badiiy detal deganda asarning mazmunini boyitadigan, qahramon xarakterini ochishga yordam beradigan yoki voqea muhitini aniq tasvirlaydigan kichik, lekin mazmunli element tushuniladi. Ba'zan yozuvchi katta bir g'oya yoki fikrni aynan birgina detal orqali ifodalashi mumkin. Shu sababli detal badiiy asarning kompozitsion va mazmuniy jihatdan muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mening fikrimcha detallar asarda kichik ko'zga ko'rinmas darajada kichik bo'lsada, ular asar mohiyatida katta rol o'ynaydi. Chunki ularsiz obraz to'liq ochib bera olinmaydi, bu esa o'quvchida zerikish hissini uyg'otadi.

Badiiy asarda detal — qahramon xarakterini ochish, tasvirni jonlantirish va g'oyaviy mazmunni chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi aniq, lo'nda va ifodali vositadir. U kichik bo'lsa-da, katta obrazli ma'noni sintezlab ko'rsatadi, asar kompozitsiyasini mustahkamlaydi va o'quvchida voqelikka nisbatan hissiy taassurot uyg'otadi. Detallar orqali yozuvchi mahorati va asarning badiiyliги namoyon bo'ladi. Badiiy adabiyot inson hayoti, uning ruhiy kechinmalari va jamiyatdagi turli voqealarni obrazli tarzda tasvirlaydi. Yozuvchi asar yaratish jarayonida voqea-hodisalarni jonli va ta'sirchan ko'rsatish uchun turli badiiy vositalardan foydalanadi. Shunday vositalardan biri badiiy detal hisoblanadi. Badiiy detal asarda tasvirlanayotgan voqea, obraz yoki muhitni aniqroq, ravshanroq va ta'sirliroq ochib berishga xizmat qiladigan muhim tasviriy unsurdir.

Badiiy detallarning asosiy o'rni va mohiyati quyidagilardan iborat:

Xarakterni ochish: Qahramonning ruhiyati, tashqi ko'rinishi (portret) yoki nutqidagi o'ziga xos bir belgi orqali uning ichki dunyosi ochib beriladi.

Obrazlilik va tasviriylik: Oddiygina tasvirni jonli, ko'z oldimizga keladigan tasvirga aylantiradi.

G'oyaviy-estetik funksiya: Kichik detal orqali asarning asosiy g'oyasini ifodalaydi.

Ramziy ma'no: Detallar ba'zan ramziy ma'no kasb etib, asarning umumlashma mazmunini boyitadi.

Turlari: Detallar predmet (buyum), portret (tashqi ko'rinish), nutqiy va ruhiyat detallariga bo'linadi.

Badiiy detallarning turlari va ahamiyati:

Predmet detali: Qahramonning xonasidagi bir buyum, kiyimi yoki qo'lidagi narsa orqali uning ijtimoiy holati va fe'l-atvori ko'rsatiladi.

Portret detali: Ko'z qarashi, yuz ifodasi, qad-qomati kabi detallar qahramonning ichki kechinmalarini ifodalaydi.

Nutqiy detal: Qahramonning o'ziga xos so'zlash uslubi uning kimligini anglatadi.

Ruhiyat detali: His-tuyg'ulari, ruhiy holatidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi.

Badiiy detallar, avvalo, qahramon xarakterini ochishda katta ahamiyatga ega. Masalan, Abdulla Qodiriyning O'tkan kunlar romanida qahramonlarning kiyim-kechagi, uy jihozlari, turmush tarziga oid detallar orqali ularning ijtimoiy mavqei va fe'l-atvori ifodalanadi. Masalan, Otabek obrazini tasvirlashda uning odobli muomalasi, kiyinish madaniyati va uyidagi tartib kabi detallar orqali uning ma'rifatli va zamonaviy fikrli inson ekanligi ochib beriladi. Bu kabi detallar qahramon obrazining yanada jonli va ishonarli chiqishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, detallar va makon va zamoni tushunchalari o'rtasida bog'liqlik mavjud va bu bog'liqlik juda muhim, chunki o'quvchi detallar orqali voqealardagi haqiqiylik hissini o'zida kasb etadi va muhitni to'liq his qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Badiiy asarda detallar ko'pincha qahramonning joyini va vaqtini aniqlashda ishlatilib ham keladi. Ular makon va zamoni jonli va tushunarli qilishga xizmat qiladi. Misol uchun: „Ota uyining eski derazalaridan kirayotgan quyosh nuri zali bo'ylab sochilib, chang bosgan javonlarni yoritdi.”¹, - deydi Abdulla Qodiriy o'zining „O'tkan kunlar” asarida va bu orqali qahramonning xonasi eski, eski uy ichidagi muhit aniq ko'rsatiladi, makonning hissiy kayfiyati ochiladi. „Qishloq yo'llari chang bosib, eshiklar tor edi, har bir hovli o'zining xonasi xa daraxtlari bilan ko'zni quvontirardi”², - bu yerdagi detal voqealar qishloqda sodir bo'layotganini va makonni jonli ko'rsatadi. Yuqoridagi misollar detallar bilan makonning bog'liqligini ifodalasa, quidagi misollar

¹ - Kecha va Kunduz/Abdulhamid Cho'lpon . Toshkent: "SHarq" nashriyoti, 2000.289 bet.

²- O'tkan kunlar /Abdulla Qodiriy. Toshkent: „Mashhur-press” nashriyoti. 2019.150 bet.

detal biln zamon tushunchalari orasidagi bog'liqlikni aks ettiradi. „Tun asta-sekin kechdi, yorug'lik g'arb ufqidan o'tar, shom qorong'ulikni yengillashtirar, ammo ertangi kunduzga umid hali sochimcha tong darajasida ko'rinmasdi.”³, - bu detallar orqali yozuvchi asardagi voqeaning tun davom etayotganini aniq his qildiradi. Shu orqali zamonaviy kecha va ertalabning almashinuvini voqealarga hissiy kayfiyat ham baxsh etadi.

Baddiy asarlarda qaysi tarflanayotgan obyektни yoritishga yordam beruvchi detallar o'rniga ko'ra turli xil bo'ladi: **predmet detali, holat detali, sharoit detali, nutqiy detal, psixologik detal, peyzaj detal** va boshqalar. Misol qilib oladigan bo'ladigan bo'lsak, O'tkir Hoshimovning “Bo'z ko'rpa ustidan yopilgan, shinni dog'i qotgan quroq dasturxon ham hozirgina go'jadan bo'shagan spool tovoq, bandi kuygan yog'och qoshiq ham uning ko'ziga xunuk ko'rinib ketdi.”⁴ deb ta'riflashi predmet detali hisoblanadi. Bundan tashqari peysaj detyaliga o'zbek adabiyotidan Abdulla Qodiriyning „O'tkan kunlar” romanida Kumushning ruhiy holati tasvirlanganda kuz manzaralari (sarg'aygan burglar, sokin tabiat) beriladi. Bu uning ichki iztiroblariga mos kelsa, jahon adabiyotidan Leo Tolstoyning „War and peace” asarida urush sahnalarida tabiatning sovuq va tumanli tasviri jang vahshiyiligini kuchaytiradi. Psixik detal esa qahramonning ruhiyati va ichki kechinmalarida o'z aksini topadi. Misol tariqasida o'zbek adabiyotidan Cho'lponning „Kecha va Kunduz” romanida keltirilgan Zebi obrazida qo'rquv, ikkilanish va ichki azoblar uning fikr va hissiyotlari orqali beriladi. Jahon adabiyotidan aytadigan bo'lsak, Feodor Dotoevskiyning „Crime and Punishment” asaridagi Raskolnikovning jinoyatdan keyingi vijdon azobi, ichki monologlari psixik detalga yorqin misol. Nutqiy detallar esa qahramonning nutqidan uning xarakteristikasini ochishga yordam beradi. Biz buni Abdulla Qodiriyning „Mehrobdan chayon” asarida Anvarning muloyim, odobli nutqi uning tarbiyasi va ziyoli ekanini ko'rsatishidan bilib oloshimiz mumkin. Holat detali qahramonning tashqi holati, harakatlari, vaziyatini yana kengroq tushunishga yordam beradi va biz buni Ernest Hemingwayning “The Old Man and the Sea” asarida Qariya Santyagoning charchagan tanasi, lekin kurashni davom ettirishi – uning qat'iyatini ko'rsatishidan bilib olsak, G'afur G'ulomning “Shum bola” asaridan qahramonning sho'x harakatlari, yugurib yurishi, sho'xligi uning xarakterini ochishida, aynan, holat detallari orqali ifodalab berilganligini ko'rishimiz mumkin. Badiiy asarlarda detal — bu kichik ko'rinadigan, ammo katta ma'no yuklaydigan unsur. U asarning umumiy g'oyasini ochishda, obrazlarni jonlantirishda va muhitni tasvirlashda muhim vosita hisoblanadi.

³ - O'g'ri /Abdulla Qahhor. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.4-bet

⁴ Urushning so'ngi qurboni /O'tkir Hoshimov. Toshkent. “Nurli dunyo” nashriyot uyi, 2024. 160 bet

Detallar orqali yozuvchi voqea-hodisalarni bevosita aytib bermaydi, balki nozik ishoralar orqali o'quvchini o'ylashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy detalning o'rni, avvalo, obraz xarakterini chuqurroq ochishda namoyon bo'ladi. Masalan, qahramonning kiyimi, xatti-harakati yoki atrof-muhitga munosabati uning ichki dunyosini ko'rsatadi. Shu bilan birga, detal asarda tasvirlangan davr, ijtimoiy muhit va ruhiy holatni aniq va ishonarli qilib beradi. Detalning mohiyati shundaki, u asarning estetik ta'sirini kuchaytiradi. Kichik bir predmet yoki holat orqali katta falsafiy yoki hayotiy fikr ifodalanadi. Bu esa asarni yanada ta'sirchan va yodda qoladigan qiladi. Badiiy detal — bu asarning mazmun va shakl birligini ta'minlovchi muhim unsurlardan biri bo'lib, u orqali yozuvchi o'z g'oyasini chuqur va obrazli tarzda ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademiya nashri, 2018. – 400 b.
2. Ibrohim Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, 2005. – 300 b.
3. Normatjon Umurov. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, 2002. – 280 b.
4. Umarali Jo'raqulov. Nazariy poetika masalalari: muallif, janr, xronotop. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2015. – 356 b.
5. Adabiyot nazariyasi: 2 tomlik. 1-tom: Adabiy asar. – Toshkent: Fan, 1978. – 416 b.